



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

**SAID AHMAD ASARLARIDA QO‘LLANILGAN PAREMIOLOGIK BIRLIK VA
FRAZEOLOGIZMLARNING LEKSIK - SEMANTIK TAHLILI**

Shomurodova Sabohat Avulfaiz qizi

Termiz davlat universiteti, magistrant

Jo‘rayev Nabi Narziyevich

Termiz davlat universiteti, o‘qituvchi (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada tilshunoslik sohasining asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lgan frazeologik va paremiologik birliklarning kelib chiqish tarixi hamda tilshunoslik sohasidagi o‘rni va lingvistik ahamiyati borasidagi qarashlar ilgari surildi. Shuningdek, frazeologizmlarning badiiy matnlarda qo‘llanilishdagi ahamiyati ochib berildi. Maqolada taniqli o‘zbek yozuvchisi Said Ahmad asarlarida uchraydigan frazeologik birliklarning tarkibiy qismlari komponent tahlil metodidan foydalanilgan holda tadqiq qilindi hamda uning lingvistik xususiyatlari ochib berildi. Ishda frazeologizmlarning semantik va stilistik jihatlari yoritilib, har bir frazeologik birligida mavjud bo‘lgan komponentlarning ma‘nosi va o‘ziga xosligi keng ko‘lamli tahlilga tortildi.

Kalit so‘zlar: paremiologik birlik, frazeologizm, leksik-semantik tahlil, Said Ahmad ijodi, maqol va matal, ibora, badiiy matn, semantika, uslubiyat, xalq og‘zaki ijodi.

**ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ И
ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ САИДА АХМАДА**

Шомуродова Сабохат Авулфаиз кизи

Термезский государственный университет, магистрант

Джураев Наби Нарзиевич

Термезский государственный университет, преподаватель (PhD)

Аннотация

В данной статье представлены взгляды на историю происхождения фразеологических единиц, одной из основных отраслей лингвистики, а также на их роль в лингвистике и языковое значение. Раскрыта также важность фразеологических единиц в литературных текстах. В статье с помощью метода компонентного анализа исследуются компоненты фразеологических единиц, встречающиеся в произведениях известного узбекского писателя Саида Ахмада, и выявляются их языковые особенности. Работа освещает семантические и стилистические аспекты фразеологических единиц, а также подвергается всестороннему анализу значение и уникальность компонентов, содержащихся в каждой фразеологической единице.

Ключевые слова: паремнологическая единица, фразеологизм, лексико-семантический анализ, творчество Саида Ахмада, пословицы и поговорки, устойчивые выражения, художественный текст, семантика, стилистика, народное творчество.

**LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF PAREMIOLOGICAL UNITS AND
PHRASEOLOGICAL EXPRESSIONS USED IN THE WORKS OF SAID AHMAD**

Shomurodova Sabohat Avulfaiz qizi

Termez State University, Master's student

Jo‘rayev Nabi Narziyevich

Termez State University, Lecturer (PhD)

Abstract

This article presents views on the history of the origin of phraseological units, one of the main branches of linguistics, as well as their role in linguistics and linguistic significance. The importance of phraseological units in literary texts is also revealed. The article studies the components of phraseological units found in the works of the famous Uzbek writer Said Ahmad using the component analysis method and reveals their linguistic features. The work sheds light on the semantic and stylistic aspects of phraseological units, and the meaning and uniqueness of the components contained in each phraseological unit are subjected to a comprehensive analysis.

Keywords: paremiological unit, phraseologism, lexical-semantic analysis, Said Ahmad's works,

proverbs and sayings, idiomatic expressions, literary text, semantics, stylistics, folklore.

Paremiologik birlik sifatida talqin qilinadigan maqollar, matallar, aforizm kabi hikmatli iboralar va frazeologik birliklar badiiy matnlarda juda lo'nda fikr ifodalash uchun qo'llanilgan bo'ladi hamda ma'noning semantik birligi kabi xususiyatlari mavjud bo'ladi. Xalq tafakkuri durdonasi hisoblanmish maqol, matal, aforizmlar nafaqat xalq hayoti, qadriyatlarimizning ifodalanishi bilan qadrlil, balki turmush tarzimizdagi nutqimizning boyitilishida ham muhim til vositalari hisoblanadi. Maqol, matallar har bir xalqning o'ziga xos madaniyati, urf-odatlarini va mentalitetini o'zida mujassamlashtiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Uzoq yillardan beri olimlar diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etib kelayotgan maqollar folklor, etnografiyaning o'rganish obyekti sifatida tadqiq etildi. Keyingi davrda bu soha bilan tilshunoslik ham shug'ullana boshladi. Bu borada Sh. Rahmatullaev, Ya. Pinxasov, G'. Salomov, Q. Samadov, Sh. Shorahmedov, X. Abdurahmonov, M. Sadriddinovlarning ishlarini e'tirof etish mumkin. X. Abdurahmonovning doktorlik dissertatsiyasi o'zbek tilida maqol va matallarning sintaktik qurilishi, maqollardagi gap va so'z birikmalarining asosiy ko'rinishlari, ularning morfologik, sintaktik va ba'zi ma'naviy-uslubiy xususiyatlarini yoritishga qaratilgan [1].

Xalq maqol va matallarining lug'aviy xususiyatlari esa M. Sadriddinova tomonidan adabiy til va dialektlarning leksik qamrovida qiyosiy o'rganilgan. Keyingi vaqtlarda o'zbek tilshunosligida xalq maqollari boshqa bir yo'nalishda tadqiq etila boshlandi, ya'ni yozuvchi va shoirlar asarlarining tili va uslubiga oid ko'pgina ishlarda, nomzodlik dissertatsiyalarida xalq maqollarining ma'naviy, uslubiy xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor berildi. Bu borada A. Rustamov, H. Sulaymon, Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov, H. Berdiyurov, R. Rasulov, M. Abdurahimov, R. Jumaniyozov, A. Xolmuhamedov, V. Abdullaev, X. Doniyorov, S. Mirzaev, S. Asqarov, A. Jo'raxonov, M. To'ychiev, M. Hakimovlarning ishlari diqqatga sazovor.

Tahlil va natijalar.

Frazeologik birliklar va paremiologik birliklar har bir tilning ajralmas qismi bo'lib, uning til va adabiyotdagi o'rni nihoyatda muhimdir. Kundalik hayotimizda nutqimizni frazeologik hamda paremiologik birliklarsiz tasavvur qila olmaymiz. Negaki, adresat va adresant o'rtasidagi diskursda ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda mazkur birliklar amaliy yordam beradi. Frazeologik birliklar juda qadimiy bo'lib, til taraqqiyotini rivojlantiradi va uni bir avloddan ikkinchi avlodga yetkazish bilan xarakterlanadi. Jahon tilshunosligida frazeologik birliklarni o'rganish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Frazeologiyaning o'rganilishidagi dastlabki izlanishlar rus hamda fransuz tilshunosligining frazeologik olimlari tomonidan amalga oshirilgan. Frazeologizmlarni o'rganishda buyuk fransuz frazeolog olimi Sharll Ballni e'tirof etamiz. U o'zining "Fransuz stilistikasi" asarida so'z birikmalari, ularni tadqiq etuvchi vositalar haqida qimmatli fikrlarini bayon qilgan [2].

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarga bo'lgan e'tibor va ilmiy tadqiqot ishlarining mahsuli XX asrning o'rtalariga kelib sezilarli darajada rivojlandi. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni A. Sa'diy, V. Abdullayev, U. Tursunov, A. G'ulomov, N. Mallayev, Sh. Rahmatullayev kabi olimlar o'rganishgan. S. N. Muratovning "Turkiy tillarda turg'un so'z birikmalari" nomli ishi turkiy til iboralarini yoritishga qaratilgan. Sh. Rahmatullayev "Hozirgi adabiy o'zbek tili" deb nomlangan o'quv darsligida frazemalarning tizimiga alohida to'xtalib o'tadi. Olim frazema haqida quyidagi fikrlarni aytib o'tadi: "Frazema til qurilishining lug'at bosqichiga mansub ikkinchi lisoniy birlik bo'lib, bittadan ortiq leksemaning o'zaro semantik-sintaktik birlashuvi bilan tarkib topgan bo'ladi, shunga ko'ra tuzma segment birlik deyiladi; sintaktik tuzilishi jihatidan birikmaga, gap shakliga teng bo'lib, odatda nominativ va signifikativ vazifa bajaradi, lekin leksemadan ifoda jihati bilangina emas, mazmun jihati bilan ham farq qiladi".

Frazeologik birliklar eng ko'p badiiy matnlarda, qisman publitsistikada, ilmiy-ommabop matnlarda qo'llaniladi. Badiiy matnlarda frazeologizmlarning tutgan o'rni beqiyosdir. Shular jumlasidan, taniqli o'zbek yozuvchisi Said Ahmad asarlarini o'qish jarayonida ham buning guvohi bo'lamiz. Adib frazeologik birliklardan quyidagi maqsadlarda foydalangan:

Voqea-hodisani obrazli ifodalash uchun: ko'pgina frazeologik birliklar konkret, ko'rgazmali tasvir uchun xizmat qilgan, shaxs-predmet, voqea-hodisaning obrazli ifodasi bo'lib kelgan. Masalan: tili uzun, dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaydi, qo'li kalta, dami ichiga tushmoq, o'zing uchun o'l yetim, bu olamdan ko'z yummoq, tepa sochi tikka bo'lmoq, ko'zidan o't chaqnamoq va hokazo kabilar. Obrazli ifodalash funksiyasi ichki ta'sirchan shaklga – obrazli tasavvurga ega bo'lgan frazeologik birliklar uchun

ko‘proq xarakterlidir. Ba‘zan frazeologizmlar muayyan tushunchani obrazli nomlab, ifodalab qolmasdan, butun matnga kuchli obrazlilik baxsh etadi. Misol: Taksi ularning eshigi oldiga kelib to‘xtashi bilan orqama-orqa yana bir taksi keldi. Undan ro‘molga o‘ralgan bir ayol tushdi. Rahmonalining yuragi orqasiga tortib ketdi. Bu uning xotini Zarofat edi [3].

Turli holatlarni baholash uchun: frazeologizmlarning turli struktural tiplari uchun biror predmet yoki voqea-hodisani nomlash bilan birga ularga salbiy yoki ijobiy baho berish funksiyasi ham badiiy asarlarda o‘zining salmoqliligi bilan ajralib turadi. Misol: Zarofat yana unga qaradi. Endi uning ko‘zlaridan o‘t chaqnadi. Rahmonali bu qarashlarga tob berolmadi. Mazkur parchada qo‘llanilgan frazeologik birliklar inson holatini baholash, salbiy yoki ijobiy munosabatlarni bildirishga xizmat qilgan.

Badiiy matnda emotsionallikni ifodalash uchun: o‘zbek tili frazeologik sistemasida mazkur birlikning katta qismi asosiy ma‘no-mohiyatini ifodalabgina qolmasdan, balki so‘zlovchining shodligi, g‘azabi, nafrati, o‘kinchi, qo‘rquvi, kinoyasi, quvonchi singari emotsional munosabatlarni ham ifodalab keladi. Misollar:

1. ...Aka-singil o‘rtasida andak gap qochgandan, ular anchadan beri ko‘rishishmagan edi. Qosimjon katta boshini kichik qilib yo‘lab borolmadi, singlisi har qalay ayol kishi emasmi, o‘zi eshik qoqib keldi. Qosimjonning boshi osmonga yetdi.
2. Arqonni yelkaga tashlab, o‘roqni olib pastlikka tushib ketar, tushga yaqin burni yerga tekkudek bo‘lib o‘t orqalab chiqardi. Ularni hovlining oftobro‘y joyiga yoyib, yana pastlikka tushib ketardi. (Ahmad S., *Jimjitlik*, 2016, 68);
3. Luqmonbekning bu tariqa qilmishlarini mahalla qariyalari bilib yurishgan ekan. Chollarning gapini Luqmonbek avvalo e‘tiborga olmadi, keyin uning kirdikorlarini birma-bir aytib, taxtaga tortishgach, nafasi ichiga tushib, g‘iring deymay qoldi. (Ahmad S., 2000, *Luqmon*, 169);
4. Shu gapni deyishga dedi-ku, qandoq qilib xotiniga aytishni bilmay, bir-ikki kun chaynalib yurdi. Oxiri xotini ochilib-sochilib turganda aytdi. Xotining tepa sochi tikka bo‘lib ketdi.

Yuqorida keltirilgan asar parchalarida qo‘llanilgan frazeologik birliklar birinchi gapda baxtiyorlikni, ikkinchi gapda charchoqni, tinchlanishni, uchinchi gapda qo‘rquvni, to‘rtinchi gapda g‘azabni ifodalab kelishga xizmat qilmoqda [4].

Yuqorida berilgan gaplarning tarkibidagi leksik va grammatik vositalar matnning ekspressivligini oshirishga xizmat qilmoqda. Gaplarda berilgan frazeologik birliklarning semantik strukturasidagi kuchaytiruv semasi ularning ekspressivligini ko‘rsatishga vosita bo‘ladi. Badiiy matnda satira va yumor hosil qilish uchun frazeologizmlar alohida o‘rin tutadi. Bu esa ularning ichki tabiati bilan bog‘liq, chunki ko‘pgina frazeologik birliklarning semantik tarkibida hazil, mazax, kesatiq, piching singari ma‘no nozikliklari bo‘ladi.

Shular bilan bir qatorda, yozuvchi asarlarida uchraydigan frazemalarda ko‘z, quloq, og‘iz, bosh, qo‘l kabi komponentlar faol ishtirok etgan. Ushbu frazemalarni birma-bir tahlil jarayonimizda ko‘rib o‘tamiz.

Ko‘z komponentli frazemalar: G‘afur aka tizzasiga qog‘oz qo‘yib, ko‘z ochib yumguncha nimalarnidir yozib qo‘limga berdi.

Ushbu gapda “ko‘z ochib yumguncha” iborasi qo‘llanilgan. Ushbu ibora payt ma‘nosidagi ibora bo‘lib, vaqt tez o‘tib ketmoq, shiddat bilan o‘tmoq degan ma‘noga teng.

Qobiljonning ko‘zlaridan o‘t chaqnab ketdi. Direktorning boyagi: “Ishni eplay olmay yotibsiz, bo‘shatishga to‘g‘ri keladi”, degan gaplari esiga tushdi.

Yuqoridagi misolda yozuvchi qahramon holatini ifodalash uchun “ko‘zidan o‘t chaqnamoq” frazemasidan foydalangan. Ushbu frazema jahllanish, ajablanish, to‘satdan aytilgan xabardan esankirash ma‘nolariga teng.

Og‘iz komponentli frazemalar:

Bahri: Dadangiz jikkilamagandilar. Hamma vaqt serkning otidek gijinglab turardilar-ku!

Nazmi: Kech qoldim, deb yugurib, o‘pkam og‘zimga keldi.

Ushbu parchada Nazmi tilidan olingan “o‘pkam og‘zimga keldi” iborasi qo‘llanilgan. Ushbu ibora charchamoq, holdan toymoq so‘ziga sinonim bo‘la oladi. Ushbu ibora orqali nutqiy emotsionallik yuqori bo‘lgan.

Qo‘l komponentli frazeologizmlar: Mehnat Qahramoni degan unvon olgan. Oblast Sovetiga deputat bo‘lib saylangan. Endi qo‘lini ko‘kka uzatsa yetadi. Rais ham u bilan hisoblashadigan bo‘lib qolgan.

Ushbu parchada “qo‘lini ko‘kka uzatmoq” iborasi qo‘llanilgan. Mazkur ibora orqali qahramon

barcha istaklarini endi hech qanday qiyinchiliksiz amalga oshirishi ifodalangan.

Bo‘lmaydigan ishga qo‘l urishdan foyda yo‘q. Bozordan ikki dunyoda ham Begijon bilan quda bo‘lmaydi.

Usmonxonning o‘rniga boshqa yoqdan odam qidirib yurishmay, qo‘li kelishib qolgan, deb Begijonning o‘zini mudir qilib qolishdi.

Mazkur parchada sifatdosh oborotli “qo‘li kelishib qolgan” iborasi ishlatilgan. Ushbu gapda qahramon hamma ishni eplay olishi, o‘sha ishga o‘rganib qolganligi mazkur ibora orqali ifodalangan [1].

Bosh komponentli frazeologizmlar: Nega aytmadilaring, desam, xotini borlarni aytdik, deyishdi. Obida, endi rozilik ber, bir boshimni ikki qilay, dedim. Shunday qilib, onanglarni roziligini olib keldim.

Ushbu misolda G‘ani tilidan olingan “boshimni ikki qilay” iborasi qo‘llanilgan bo‘lib, ushbu ibora uylanmoq degan leksemaga teng. Mavhum otli komponent ishtirok etgan frazeologizmlar: To‘lagan ishdan kelsa, xotini to‘rsayib o‘tiribdi. Yaramas bola sirni ochib qo‘ygan shekilli, deb yuragi orqaga tortib ketdi. Mazkur parchada “yuragi orqaga tortib ketdi” frazeologik birlik ishtirok etgan. Ushbu ibora qo‘rqib ketmoq, cho‘chib ketmoq ma‘nolariga teng.

1-jadval.



1-rasm. Mazkur sxemada Said Ahmad asarlarida qo‘llanilgan frazeologizmlarning tabiatini tasvirladik.

Xulosa shuki, Said Ahmad asarlarida frazeologik birliklarning komponent tahlili asar stilistikasini kengaytiradi va ta‘sirchanlik darajasini orttiradi. Yozuvchi frazeologizmlarni maqsadga muvofiq, aniq va o‘zgacha tarzda ishlatgan, bu esa asarning ruhiy atmosferasi to‘g‘ridan to‘g‘ri kitobxon qalbiga ko‘chgan. Garchi Said Ahmad asarlarida maqol, matallardan nisbatan kamroq foydalangan bo‘lsa-da, lekin turli xil tasviriy vosita, ibora, ko‘chim, metaforik birliklardan yetarlicha qo‘llanilganligi bilan badiiy asar tilining uslubiy bo‘yoqdorligini, badiiy ta‘sirchanligini oshirishda katta yordam berdi. Badiiy asarlarda frazeologizmlardan foydalanish tinglovchiga ta‘sirchan hamda qiziqarli yetkazish imkonini beradi. Said Ahmad asarlaridagi barcha frazemalar xalq tiliga yaqin bo‘lganligi sababli, kitobxon sevib o‘qiyveradi. Misollardan ayon bo‘ladiki, Said Ahmad asarlarida ko‘proq fe‘lli frazeologik birliklardan ko‘proq foydalangan. Yuqorida keltirilgan barcha frazeologizmlarning ma‘nosini izohlashda o‘zbek tilshunosligining zabardast frazeolog olim hamda olimalari Sh. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmanova, I. O‘razeva, K. Rixsiyevlar hamkorligida tuzilgan “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” ilmiy-amaliy dastak bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jo‘rayev N. N. Badiiy matnlarni lingvomadaniy tahlil qilishning nazariy asoslari: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2023.
2. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2022.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili: darslik. – Toshkent: Universitet, 2006.
4. Абдурахманов Х. Особенности синтаксиса узбекского устного народного творчества: автореф. дис. – Ташкент, 1977. – С. 48.